

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XOLJIGITOV SOBIR MAMARAPOVICH**

**MAGNIT MAYDONIDA AYLANMA PARABOLOID SHAKLIDAGI  
QOBIQNING MAGNITOELASTIK DEFORMATSIYALANISHI**

**01.02.04 – Deformasiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro–2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-  
mathematical sciences**

**Xoljigitov Sobir Mamaraupovich**

Magnit maydonida aylanma paraboloid shaklidagi qobiqning magnitoelastik  
deformatsiyalanishi..... 3

**Холжигитов Собир Мамараупович**

Магнитоупругое деформирование параболоида вращения в магнитном  
поле..... 21

**Kholjigitov Sobir**

Magnetoelastic deformation of a paraboloid of revolution in a magnetic  
field..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 44

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XOLJIGITOV SOBIR MAMARAPOVICH**

**MAGNIT MAYDONIDA AYLANMA PARABOLOID SHAKLIDAGI  
QOBIQNING MAGNITOELASTIK DEFORMATSIYALANISHI**

**01.02.04 – Deformasiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro–2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida №B2023.4.PhD/FM963 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertasiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) institut veb-sahifasida ([www.buxmti.uz](http://www.buxmti.uz)) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Indiaminov Ravshan Shukurovich**  
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xodjabekov Muradjon Usarovich**  
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Sagdiyev Xamidulla**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertasiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 24 dekabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-78-84, e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz)).

Dissertasiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 335 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertasiya avtoreferati 2024 yil 12 dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 6 noyabrdagi № 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.X. Teshayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
fizika-matematika fanlari doktori (DSc),  
professor

**Z.I. Boltayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, fizika-matematika fanlari doktori  
(DSc), professor

**M.Z. Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fizika-  
matematika fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasiga avtoreferat)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yangi texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish sohasida raqobat juda yuqori bo'lib, magnitoelastik masalalar yechimiga qaratilgan innovatsiyalar sanoat va texnologik loyihalarning ilg'orligini ta'minlashda yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida magnitelastik deformatsiyalanishini matematik modellashtirish orqali tadqiq qilish va mexanik va elektromagnit maydonlarning birgalikdagi o'zaro ta'sirini baholashning yangi usullarini amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan yangi innovatsion texnologiyalarni yaratish uchun ushbu murakkab fizik jarayonlarning mexanik, elektromagnit va issiqlik maydonlari bilan o'zaro ta'siri chuqur tadqiq etilishi talab qilinadi va bu esa materiallarning xususiyatlarini samarali boshqarish, ularning magnit maydon ta'siridagi mexanik holatini o'rganish va yangi qurilmalar, texnologik echimlar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda tok eltuvchi plastinka va qobiqlar shaklidagi konstruktiv mikroelementlarning vaqt bo'yicha o'zgaruvchan elektromagnit maydoni bilan termomagnitelastik o'zaro ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ushbu tadqiqotlar konstruktiv elementlarning samaradorligini oshirish, ularning xizmat muddati va ishonchliligini yaxshilash, shuningdek, sanoat va ilmiy texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqishda ahamiyatini hisobga olganda bu mikroelementlarning issiqlik, magnit va mexanik maydonlar bilan bo'g'liqlik o'zaro ta'sirini tahlil qilish, shuningdek, tok eltuvchi plastinka va qobiqlarning kuchlanganlik va deformatsiyalanganlik holatini noxiziqli faktorlarning, xususan geometrik noxiziqlilikni hisobga olgan holda magnitelastik masalalari sonli echishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham magnitoelastik o'zaro ta'sirlar bo'yicha tadqiqotlar texnologik tizimlarning energetik samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi echimlarni yaratishga, energiyani yig'ish va qayta ishlash tizimlarida magnit-mexanik o'zgarishlar o'zaro kuchlarni boshqarish orqali ko'proq energiya samaradorligini ta'minlashga doir keng ko'lamlil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, "...ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash,..."<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, жумладан, turli o'zaro ta'sir kuchlari va jismning fizik xossalari o'rtasidagi bog'lanishlarni tadqiq qilish orqali yangi matematik modellar va fizik qonuniyatlar ishlab chiqish texnologik loyihalarning ilg'orligini ta'minlashda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2018 yil 12 fevraldagi F-5209-son «O'zbekiston Respublikasida kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

to'g'risida»gi farmoyishi, 2021 yil 10 fevraldagi PQ-4986 «Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini yanada rivojlantirishga investisiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va ushbu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoda magnitoelastik o'zaro ta'sir modellarini yaratish, tok eltuvchi plastinka va qobiqlarning murakkab deformatsiya va kuchlanish holatlarini tavsiflash uchun aniq matematik modellarini ishlab chiqish masalalari bo'yicha bir qator olimlar: Kuang Z.B, Eringen A.C., Maugin G.A., Abdalla A.N., Hachkevych O., Ootao Y., Rostami R., Ebrahimi F., Hutter K., Dinzart F., Sarkisyan S.O., Sabar H., Moon F.C., Bian Y.H., Zhao T., Zhupanska O.I., Loos I.I., Bagdasaryan G.E., Kaloyerov S.A., Bardzokas D.I., Ambarsumyan S.A., Belubekyan M.V., Kudryavsev B.A., Parton V.Z., Guz A.N., Maxort F.G., Grigorenko Ya.M., Molchenko L.V. lar va boshqa xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda magnit maydon va mexanik elastik jismning o'zaro ta'sirini matematik modellashtirish, magnitoelastik masalalarni sonli yondashuv yordamida yechish usullari bo'yicha Shirinqulov T.Sh., Nazirov Sh.A., Nuraliyev F.M., Indiaminov R.Sh. kabi olimlar muhim ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Magnit maydoniga joylashtirilgan elastik jismlarda magnit, elektr va mexanik maydonlar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi natijasida murakkab jarayonlar yuzaga keladi. O'zaro bog'liqlik maydonlarning noxizizli xususiyatlarini aniqlash va ularni matematik modellarga kiritish katta qiyinchilik tug'diradi. Turli material-larda maydonlarning intensivligi oshib borganda, ularning mexanik xossalari sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Elektr tokini eltuvchi yupqa elastik jismlar-ning magnitomekanik bog'liqligi bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsata-diki, bu masalalar hali ham to'liq va chuqur o'rganilmaganligicha qolmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filialining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kirgan BV-F4-014 «Elektromagnit moslashuvlikni hisobga olgan holda elektron qurilmalar, mikro-va nano-tizimlar yupqa elementlari magnit maydonida magnitelastik tebranishlari masalalarini yechishning amaliy usullari va magnitelastiklikning matematik asoslarini rivojlantirish» (2017-2020) fundamental A-5-030 «Anizotrop jismlar magnitotermoelastikligi bog'liqlik masalalari matematik va dasturiy ta'minoti» (2015-2017) amaliy grantlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – vaqtga bo'g'liq o'zgaruvchan mexanik va magnit maydonlarning ta'sirida tok o'tkazuvchi aylanma paraboloid shaklidagi yupqa qobiqning magnitelastik deformatsiyalanish jarayonini matematik modellashtirish, kuchlanganlik va deformatsiyalanish holati nazariyasini takomillashtirish va rivojlantirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

qutblanish va magnitlanish xususiyatlariga ega bo'lmagan paraboloid shaklidagi elektr tokini eltuvchi aylanish sirtli qobiqning magnitelastik deformatsiyalanishini o'zgaruvchan mexanik va elektrodinamik kuchlar ta'sirlarini hisobga olgan holda matematik modellashtirish;

paraboloid shaklidagi elektr tokini eltuvchi yupqa aylanish sirtli qobiq magnitelastikligining ikki o'lchamli modelini qurish;

elektr tokini eltuvchi paraboloid shaklidagi egiluvchan aylanish sirtli qobiqning kuchlanganlik va deformatsiyalanish holatini tadqiq qilish imkon beruvchi magnitelastiklikning bog'langan masalalarini sonli yechish uchun hisoblash algoritmlari va dasturiy vositalarini ishlab chiqish;

aylanma paraboloid shaklidagi yupqa qobiqning kuchlanganlik va deformatsiya holatlarini tadqiq qilish, elektromagnit va mexanik effektlarni o'rganish, sonli tajribalar o'tkazish, hamda olingan sonli natijalarni tahlil qilish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida vaqt bo'yicha o'zgaruvchan elektromagnit maydonida elektr tokini eltuvchi paraboloid shaklidagi yupqa aylanish sirtli qobiqning magnitoeplastik deformatsiyalanish jarayoni olingan.

**Tadqiqot predmeti** –paraboloid shaklidagi tok eltuvchi aylanish sirtli qobiqning magnitelastiklik deformatsiyalanishini matematik modellari, hisoblash algoritmlari, dasturiy vositalari, kuchlanganlik va deformatsiyalanish holatlari va elektromagnit effektlar tahlillari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi usullari, hamda Nyumark, chiziqilashtirish va diskret ortogonallashtirish usullari qo'llanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

vaqtga bog'liq o'zgaradigan elektr, magnit va mexanik maydonlari ta'sirida bo'lgan aylanma paraboloid shaklidagi yupqa qobiqning magnitelastik deformatsiyalanishi matematik modeli ishlab chiqilgan;

magnit maydon ostida joylashgan paraboloid shaklidagi tok eltuvchi aylanish sirtli qobiqning deformatsiyalanish va elektromagnit maydon bilan o'zaro ta'sirini birgalikda tahlil qilish inkonini beruvchi magnitelastiklikning geometrik noxiziqli ikki o'lchamli model ishlab chiqilgan;

ilk bora aylanma paraboloid shaklidagi tok eltuvchi yupqa qobiqning magnitelastikka bog'liqlik masalalarini sonli yechish uslubiyoti va algoritmlari ishlab chiqilgan;

tok eltuvchi yupqa qobiqda tashqi begona tokning va magnit maydonining o'zgarishiga bog'liq ravishda kuchlanganlik-deformatsiya holatida tashqi begona elektr toki qiymatining oshishi natijasida qobiqning kuchlanishi va ko'chishi, Lorens kuchining normal tashkil etuvchisi, magnit induksiyasi, elektr maydoni kuchlanganligi qiymatlari oshishiga olib kelishi aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

to'k o'tkazuvchi qobiq magnitelastik masalasini echish uchun ishlab chiqilgan usullar yuqori chastotali toklar bilan induktiv qayta ishlash texnologiyalarida magnit maydonning turli metal konstruksiyalarga ta'sirini baholashga va uni optimallashtirishga imkon bergan;

magnit maydoni bilan bog'liq o'zaro ta'sirlar, magnitelastik deformatsiya

jarayonlarini aniq modellashtirish orqali yangi texnologik yechimlar yaratish va mavjud jarayonlarni yanada samarali qilish imkoniyati yaratilgan;

### **Tadqiqot natijalarining ishonchligi.**

Elastik jismlar mexanikasi va magnit maydonlar fizikasi usullarini qoʻllagan holda magnitelastik chegaraviy masalani toʻgʻri qoʻyish, matematik ifodalar qatʼiyligini taʼminlash, asoslangan yechish usullaridan foydalanish va yechimlarning aniqligini baholash, shuningdek, boshqa matematik qoʻyilgan masalalarni yechimlari bilan taqqoslash yordamida asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati yupqa plastinka va qobiqlar magnitelastikligi nazariyasining rivojlanishiga qoʻshgan salmoqli hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati magnit maydon taʼsirida boʻlgan paraboloid shaklidagi aylanish sirtli izotrop qobiqning deformatsiya va kuchlanishlarini hisoblash hamda baholash uchun sonli algoritmlar va dasturiy vositalar ishlab chiqilganligi va takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqotdagi oʻzgaruvchan elektromagnit mexanik kuchlarning taʼsiri jarayonida tok eltuvchi aylanish sirtli yupqa qobiq shaklidagi mikroelementlarning magnitoelastik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini tadqiq qilish uchun ishlab chiqilgan matematik modellar, sonli algoritmlar va dasturiy vositalar asosida:

elektrodinamik va elektromagnit moslashuvchanlikni inobatga olgan holda, tok eltuvchi kesik aylanma paraboloid shaklidagi yupqa qobiq konstruktiv mikroelementlariga oʻzgaruvchan elektromagnit mexanik kuchlarining taʼsiri jarayonlarini aniqlash maqsadida Samarqand viloyati «Elektromagnit moslashuv xizmati» tasarrufidagi elektromagnit toʻlqinlarni oʻlchaydigan qurilmalarida ishlatiladigan konstruktiv mikroelementlariga joriy qilingan (Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 13.06.2024 yil №3/17-4/4-10003-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzgaruvchan elektrodinamik kuchlar taʼsiri jarayonida boʻlgan tok eltuvchi kesik aylanma paraboloid shaklidagi yupqa qobiqning elektro-magnit mexanik parametrlari uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida yupqa qobiqning mustahkamligi holati 6-11% ga orttirilishiga erishilgan, yaratilgan matematik va dasturiy taʼminot muhandislik hisoblarini oʻtkazishga ketadigan vaqt va mehnat sarfini 6-8% ga qisqartirish imkonini bergan;

tok eltuvchi aylanish sirtli kesik paraboloid shaklidagi mikroelementlarning tebranishlari va ularning elektromagnit maydoni bilan murakkab oʻzaro taʼsir jarayonlarini aniqlash hamda qobiqlarda paydo boʻladigan elektromagnit mexanik effektlarni tahlil etish maqsadida «AlNet» Shuba Korxonasi soha ish jarayonlarida ishlatiladigan elektron qurilmalardagi diod va tranzistorlari tarkibidagi konstruktiv mikroelementlariga joriy qilingan (Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 13.06.2024 yil №3/17-4/4-10003-son maʼlumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida qurilmalarda ishlatiladigan tok eltuvchi yupqa mikroqobiqlarning mustahkamligi 8-10% ga orttirilishiga erishilgan, elektromagnit mexanik kuchlar taʼsirida boʻlgan yupqa qobiq egilishini minimallashtirishdagi baholash ish unumdorligini 6-8% ga oshirishga imkon bergan;

aylanish sirtli kesik paraboloid shaklidagi tok eltuvchi yupqa mikroelementlarning tebranishlari, ularning elektromagnit maydoni bilan oʻzaro murakkab

nostasionar ta'sir jarayonlari va ularda paydo bo'ladigan elektromagnit mexanik effektlarini tahlil etish maqsadida "O'ZBEKTELEKOM" AK Samarqand filiali Ishtixon tuman telekommunikatsiya bog'lamasiga qarashli elektron avtomatik stansiyalarining elektron boshqaruv mashinalarida ishlatiladigan tok eltuvchi yupqa mikroelementlariga joriy qilingan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 13.06.2024 yil №3/17-4/4-10003-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida aylanish sirtli kesik paraboloid shaklidagi tok eltuvchi qobiqlarning mustahkamligi holati 8-12% ga orttirilishiga, qobiqning egilishini minimallashtirishga erishish maqsadida yaratilgan matematik va dasturiy ta'minot muhandislik hisoblarini o'tkazishga ketadigan vaqt va mehnat sarfini 6-8% ga qisqartirish imkonini bergan;

tok eltuvchi yupqa mikroqobiqlarning tebranishlari va elektromagnit maydoni bilan o'zaro murakkab o'zgaruvchan ta'sir jarayonlari hamda ularda sodir bo'ladigan elektromagnit mexanik effektlarini tahlil qilish maqsadida Jizzax politexnika instituti "Radioelektronika" kafedrasida tasarrufida bo'lgan ilmiy va o'quv laboratoriyasidagi o'lchov-tekshiruv priborlarida ishlatiladigan tok o'tka-zuvchi yupqa konstruktiv mikroelementlariga joriy qilingan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 13.06.2024 yil №3/17-4/4-10003-son ma'lumotnomasi). Natijada elektrodinamik kuchlar ta'sirida bo'lgan tok eltuvchi yupqa qobiq shaklidagi mikroelementning elektromagnit mexanik parametrlari uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida qobiqning mustahkamligi 5-8% ga orttirilishiga erishilgan, yaratilgan matematik va dasturiy ta'minot muhandislik hisoblarini o'tkazishga ketadigan vaqt va mehnat sarfini 6-7% ga qisqartirish imkonini bergan;

aylanish sirtli qobiqning chiziqli bo'lmagan elastik deformatsiyalanishini o'zgaruvchan mexanik kuchlar ta'sirlarini hisobga olgan holdagi matematik modellari, kuchlanganlik-deformatsion holatini tadqiq qilish imkonini beradigan elastiklikning masalalarini sonli yechish uchun hisoblash algoritmlari va dasturiy vositalari kabi dissertatsiyasi ilmiy natijalaridan Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida 2016-2020 yillarda bajarilgan OT-F4-01 "Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 16.10.2024 yil №1/04-2659-son ma'lumotnomasi). Natijada seysmik va tashqi kuchlar ta'sirida ko'p qatlamli suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning kuchlanganlik-deformatsiya holatini hisoblash imkonini yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 4 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan, hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 108 betni tashkil etgan.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertasiya mavzusining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish holatlari, shuningdek, tadqiqot natijalarining chop etilganligi hamda dissertasiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning «**Tok eltuvchi qobiqlarning magnitelastiklik muammolariga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida elastik jismlar va magnit maydonlar o'zaro ta'siri muammolariga bag'ishlangan ilmiy manbalarning batafsil tahlili hamda magnitoelastik jarayonlarning sonli modellashtirish usullari, magnitoelastik masalalarni yechish uchun sonli yondashuvlar, tok o'tkazuvchi plastinka va qobiqlar va elektromagnit maydon o'rtasidagi o'zaro ta'sir modellarini ishlab chiqish va kuchlanganlik-deformatsiya holatini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar sharhi berilgan.

Magnitelastiklik yo'nalishidagi so'ngi ilmiy tadqiqotlar turli magnit elastikli yangi materiallardagi elektromagnit va elastik xususiyatlarning murakkab o'zaro ta'sir muammolarini tadqiq qilishga qaratilgan.

Magnit maydon ta'sirida jismning har xil shakli va geometriyasiga ko'ra nozik bog'liqliklarni hisobga oluvchi modellarning ishlab chiqilishi muhim hisoblanishi, hamda o'zaro ta'siri muammolari matematik nuqtai nazardan murakkab ekanligi bunday masalalar uchun aniq matematik yechimlar yoki sonli yechimlar usullarini rivojlantirish muhimligi va yetarli darajada o'rganilmaganligini keltirilgan adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadi. Bunga boshlang'ich bog'liqli magnitelastik xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasining murakkabligi, bu kabi noxiziqli masalalarni yechish usullari va algoritmlari mavjud emasligi bilan bog'liq, bu esa dissertasiya ishi maqsadi va masalalarini aniqlash imkonini berdi.

Dissertasiyaning «**Magnitoelastik chegaraviy masalasining qo'yilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tutash muhit mexanikasi va elektrodinamikasi tenglamalari, magnitelastik balans munosabatlari, elastik muhit harakati tenglamalari va elektromagnit maydoni tenglamalari sistemasi birgalikda tahlil qilingan, holat tenglamalari uchun magnitomexanik miqdorlar shakllantirilgan va tok o'tkazuvchi elastik jism magnit maydon ichida bo'lsa, elektromagnit maydon bilan o'zaro ta'sir orqali jismga ta'sir qiluvchi kuchlar hosil bo'lishi, bu kuchlar elektr tokning magnit maydon bilan o'zaro ta'sirida paydo bo'ladigan Lorents kuchi, jismning qutblanishi, magnitlanishi va elektromagnit energiyaning mexanik energiyaga aylanish jarayonlari natijasida vujudga kelishi, bu ta'sirlar natijasida jismda deformatsiyalar, kuchlanishlar va energetik o'zgarishlar yuz berishi ko'rsatilgan, tok eltuvchi elastik jism magnitoelastikligi tenglamalari sistemasi hosil qilingan va mos magnitelastik noxiziqli chegaraviy masala shakllantirilgan.

Mazkur ishda magnit maydonga joylashtirilgan tok o'tkazuvchi jismda magnit maydon va elektr tokning o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan elektrodinamik kuchlarni hisobga olgan holda tok eltuvchi jismning magnitoelastik deformatsiyalanishi matematik modeli taklif etildi:

$$\frac{\partial t_{ki}}{\partial x_k} + \rho(F_i + F_i^\wedge) = \rho \frac{dV_i}{dt}, \quad (1)$$

$$\varepsilon_{ijk} \frac{\partial H_k}{\partial x_j} = J_i + \frac{\partial D_i}{\partial t}, \quad \frac{\partial B_i}{\partial x_i} = 0, \quad \varepsilon_{ijk} \frac{\partial E_k}{\partial x_j} = -\frac{\partial B_i}{\partial t}, \quad \frac{\partial D_i}{\partial x_i} = \rho_e. \quad (2)$$

$$J_i = \sigma \left( E_i + \varepsilon_{ijk} \frac{\partial u_j}{\partial t} B_k \right) + \rho_e \frac{\partial u_i}{\partial t}, \quad (3)$$

$$D_i = \varepsilon E_i, \quad B_i = \mu H_i, \quad (4)$$

$$\rho F_i^\wedge = \varepsilon_{ilm} J_l B_m + \rho_e E_i, \quad (5)$$

mos ravishda boshlang'ich va chegaraviy shartlar

$$v_k (t_{ki} + \tau_{ki}) / s_1 = \left[ P_i + v_k \tau_{ki}^{(c)} \right] / s_1, \quad (6)$$

bu yerda

$$\tau_{ki} = E_i D_k + H_i B_k - 1/2 \delta_{ki} (E_j D_j + H_j B_j),$$


$$\vec{u} = 0, \quad \vec{\dot{u}} = 0, \quad \vec{B} = 0, \quad \vec{B}^{(c)} = 0, \quad \vec{H} = 0, \quad \vec{H}^{(c)} = 0. \quad (7)$$

(1) - (7) munosabatlarda quyidagi belgilashlar kiritilgan: ichki kuchla-nishlar tenzori komponentalari  $t_{ij}$ ; hajmiy mexanik kuch vektori komponentalari  $\rho F_i$ ; Lorens hajmiy kuchi vektori komponentalari  $\rho F_i^\wedge$ ;  $\varepsilon_{ijk}$  –tenzor Levi-Chivita tenzori; mos holda elektr maydoni kuchlanishi va induksiyasi, hamda magnit maydoni kuchlanishi va induksiyasi vektorlari komponentalari  $E_k, D_k, H_k, B_k, J_k$ ; to'la tok zichligi vektori komponentalari  $J_k = J_k^* + \rho_e V_k$ ; o'tkazish toki zichligi  $J_k^*$ ; konvektiv tok zichligi  $\rho_e V_k$ ; zaryadlar hajmiy zichligi  $\rho_e$ ; aktual holatdagi modda zichligi  $\rho$ ;  $\varepsilon$  – elektr sindiruvchanlik koeffitsiyenti,  $\mu$  – magnit sindiruvchanlik koeffitsiyenti;  $\tau_{ki}, \tau_{ki}^{(c)}$  – jism va vakumdagi Maksvell tenzorlari;  $P_i$  – deformatsiya-lanmagan holatda yuza o'lchamlariga to'g'ri keladigan sirt kuchi tashkil etuvchisi;  $v_k$  – jism deformatsiyalangan chegarasidagi normalning birlik vektori komponentalari;  $s_1$  – chegaraviy shartlar kuchlanishlarda berilgan jism chegarasi qismi; tezlik vektori komponentalari  $V_k$ ; vaqt bo'yicha to'la hosila  $\frac{d}{dt} = \frac{\partial}{\partial t} + V_k \frac{\partial}{\partial x_k}$ ,  $\vec{u}$  - ko'chish vektori, (c) - indeks miqdorlarning tashqi muhitga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, (1), (2) munosabatlar va (3)–(5), hamda (6), (7) bilan birgalikda, magnit maydonga joylashtirilgan tok o'tkazuvchi jismda magnit maydon va elektr tokning o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan elektrodinamik kuchlarni hisobga olgan holda tok eltuvchi jismning magnitoelastik deformatsiyalanishi matematik modelini tashkil etadi.

Dissertasiyaning «**Paraboloid shaklidagi aylanish sirtli yupqa qobiqning magnitelastik deformatsiyalanishi modeli**» deb nomlangan uchinchi bobida vaqt bo'yicha o'zgaruvchan mexanik va elektrodinamik kuchlar ta'sirida bo'lgan qutblanmaydigan va magnitlanmaydigan tok eltuvchi paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli qobiqning magnitoelastik deformatsiyalanishi matematik modellash-tirilgan, shunindek, geometrik nochiziqlikni hisobga olgan holda aylanish sirtli yupqa qobiqning kuchlanganlik-deformatsiya holatini tadqiq qilish imkononi beradigan magnitelastiklikning ikki o'lchamli modeli ishlab chiqilgan hamda,

paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli qobiqning hal qiluvchi yechiladigan bog‘langan tenglamalar sistemasini hosil qilingan va noxiziqli magnitoelelastik chegaraviy masala shakllantirilgan. Vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan mexanik va elektrodinamik kuchlar ta‘sirida bo‘lgan qutblanmaydigan va magnitlanmaydigan tok eltuvchi paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli qobiqning deformatsiyalanishi masalasini qaraymiz (1-rasm). Paraboloid shaklidagi qobiq materiali umumlashgan Guk qonuniga bo‘ysunadi deb hisoblaymiz. Bu magnitelastik material muhit harakatini ifodalaydigan tenglamalar sistemasini shakllantiramiz.



**1-rasm. Elektromagnit va mexanik yuklanishlar tasirida bo‘lgan tok o‘tkazuvchi paraboloid shaklidagi aylanish sirtli qobiq**

Kirxgof-Lyav va unga mos bo‘lgan elektromagnit gipotezalaridan foydalangan holda, vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan mexanik va elektrodinamik kuchlar ta‘sirida bo‘lgan qutblanmaydigan va magnitlanmaydigan tok eltuvchi paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli yupqa qobiqning magnitelastik bog‘langan tenglamalari ikki o‘lchamli taqribiy sistemi geometrik noxiziqliklarni hisobga olgan holda hosil qilingan:

magnitoelelastiklik tenglamalari:

$$\begin{aligned}
 \frac{\partial}{\partial s}(rN_s) - \cos \varphi N_\theta + \frac{\partial S}{\partial \theta} + \frac{1}{R_s} \frac{\partial H}{\partial \theta} + \frac{r}{R_s} Q_s + r(P_s + \rho F_s^\wedge) &= r\rho h \frac{\partial^2 u}{\partial t^2}; \\
 \frac{\partial N_\theta}{\partial \theta} + \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial S}(r^2 S) + \frac{\partial}{\partial s}(\sin \varphi H) + \frac{\cos \varphi}{R_s} H + \\
 + \sin \varphi Q_\theta + r(P_\theta + \rho F_\theta^\wedge) &= r\rho h \frac{\partial^2 v}{\partial t^2}; \\
 \frac{\partial}{\partial s}(rQ_s) + \frac{\partial Q_\theta}{\partial \theta} - \frac{r}{R_s} N_s - \sin \varphi N_\theta + r(P_\gamma + \rho F_\gamma^\wedge) &= r\rho h \frac{\partial^2 w}{\partial t^2}; \quad (8) \\
 \frac{\partial H}{\partial \theta} + \frac{\partial}{\partial s}(rM_s) - \cos \varphi M_\theta - rQ_s - r\left(N_s - \frac{\sin \varphi}{r} M_\theta\right) \vartheta_s - rS\vartheta_\theta &= 0; \\
 \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial S}(r^2 H) + \frac{\partial M_\theta}{\partial \theta} - rQ_\theta - r\left(N_\theta - \frac{1}{R_s} M_s\right) \vartheta_\theta - rS\vartheta_s &= 0; \\
 -\frac{\partial B_\gamma}{\partial t} &= \frac{1}{r} \left( \frac{\partial(rE_\theta)}{\partial s} - \frac{1}{r} \frac{\partial E_s}{\partial \theta} \right);
 \end{aligned}$$

$$\sigma \left[ E_s - \frac{\partial v}{\partial t} B_\gamma - 0,5 \frac{\partial w}{\partial t} (B_\theta^+ + B_\theta^-) \right] = \frac{1}{r} \frac{\partial H_\gamma}{\partial \theta} + \frac{H_\theta^+ - H_\theta^-}{h};$$

$$\sigma \left[ E_\theta - \frac{\partial u}{\partial t} B_\gamma + 0,5 \frac{\partial w}{\partial t} (B_\theta^+ + B_\theta^-) \right] = -\frac{\partial H_\gamma}{\partial s} + \frac{H_\theta^+ - H_\theta^-}{h};$$

deformasiyaning ko'chish orqali ifodasi:

$$\begin{aligned} \varepsilon_{ss} &= \frac{\partial u}{\partial s} + \frac{w}{R_s} + \frac{1}{2} \vartheta_s^2; \\ \varepsilon_{\theta\theta} &= \frac{1}{r} \frac{\partial v}{\partial \theta} + \frac{\cos \varphi}{r} u + \frac{\sin \varphi}{r} w + \frac{1}{2} \vartheta_\theta^2; \\ \varepsilon_{s\theta} &= \frac{1}{r} \frac{\partial u}{\partial \theta} + r \frac{\partial}{\partial s} \left( \frac{v}{r} \right) + \vartheta_s \vartheta_\theta; \\ \chi_{ss} &= \frac{\partial v_s}{\partial s}, \quad \chi_{\theta\theta} = \frac{1}{r} \frac{\partial \vartheta_\theta}{\partial \theta} + \frac{\cos \varphi}{r} \vartheta_s; \\ \chi_{s\theta} &= \frac{\partial \vartheta_\theta}{\partial s} + \frac{1}{r} \frac{\partial \vartheta_s}{\partial \theta} - \frac{\cos \varphi}{r} \vartheta_\theta + \frac{1}{R_s} \left( \frac{1}{r} \frac{\partial u}{\partial \theta} - \frac{\cos \varphi}{r} v \right) + \frac{\sin \varphi}{r} \frac{\partial v}{\partial s}, \end{aligned} \quad (9)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} \vartheta_s &= -\frac{\partial w}{\partial s} + \frac{u}{R_s}; \\ \vartheta_\theta &= -\frac{1}{r} \frac{\partial w}{\partial \theta} + \frac{\sin \varphi}{r} v \end{aligned}$$

normalning burilish burchaklari;

elastiklik munosabatlari:

$$\begin{aligned} N_s &= \frac{Eh}{1 - \nu^2} [\varepsilon_{ss} + \nu \varepsilon_{\theta\theta}]; \\ N_\theta &= \frac{Eh}{1 - \nu^2} [\varepsilon_{\theta\theta} + \nu \varepsilon_{ss}]; \\ S &= \frac{Eh}{2(1 + \nu)} \varepsilon_{s\theta}; \\ H &= \frac{Eh^3}{12(1 + \nu)} \chi_{s\theta}; \\ M_s &= \frac{Eh^3}{12(1 - \nu^2)} [\chi_{ss} + \nu \chi_{\theta\theta}]; \\ M_\theta &= \frac{Eh^3}{12(1 - \nu^2)} [\chi_{\theta\theta} + \nu \chi_{ss}]; \end{aligned} \quad (10)$$

Lorens kuchi tashkil etuvchilari quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned} \rho F_s^\wedge &= h J_{\theta st} B_\gamma + \sigma h E_\theta B_\gamma + \sigma h \left\{ 0,5 \frac{\partial w}{\partial t} (B_s^+ + B_s^-) B_\gamma - \right. \\ &\quad \left. - \frac{\partial u}{\partial t} B_\gamma^2 - \frac{\partial u}{\partial t} \left[ 0,25 (B_\theta^+ + B_\theta^-)^2 + \frac{1}{12} (B_\theta^+ + B_\theta^-)^2 \right] + \right. \\ &\quad \left. + \frac{\partial v}{\partial t} \left[ 0,25 (B_s^+ + B_s^-) (B_\theta^+ + B_\theta^-) + \frac{1}{12} (B_s^+ - B_s^-) (B_\theta^+ - B_\theta^-) \right] \right\}; \\ \rho F_\theta^\wedge &= -h J_{sst} B_\gamma - \frac{h}{r\mu} \frac{\partial B_\gamma}{\partial \theta} B_\gamma + \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
& +\sigma_2 h \left\{ \frac{\partial u}{\partial t} \left[ 0,25(B_s^+ + B_s^-)(B_\theta^+ + B_\theta^-) + \frac{1}{12}(B_s^+ - B_s^-)(B_\theta^+ - B_\theta^-) \right] - \right. \\
& \left. - \frac{\partial v}{\partial t} \left[ 0,25(B_\theta^+ + B_\theta^-)^2 + \frac{1}{12}(B_\theta^+ - B_\theta^-)^2 \right] - \frac{B_\theta^+ - B_\theta^-}{\mu} B_\gamma \right\}; \quad (11)
\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
\rho F_\gamma^\wedge = & 0,5h[J_{sst}(B_\theta^+ + B_\theta^-) - J_{\theta st}(B_s^+ + B_s^-)] + \frac{h}{2r\mu} \frac{\partial B_\gamma}{\partial \theta} (B_\theta^+ + B_\theta^-) - \\
& - 0,5\sigma h E_\theta (B_s^+ + B_s^-) + \sigma h \left\{ 0,5 \frac{\partial u}{\partial t} (B_s^+ + B_s^-) B_\gamma - \frac{\partial w}{\partial t} \left[ 0,25(B_s^+ + B_s^-)^2 + \right. \right. \\
& \left. \left. + \frac{1}{12}(B_\theta^+ - B_\theta^-)^2 + \frac{1}{12}(B_s^+ - B_s^-)^2 \right] \right\} + \frac{(B_\theta^+)^2 - (B_\theta^-)^2}{\mu}.
\end{aligned}$$

Bu yerda:  $N_s, N_\theta$  – normal va tangensial kuchlar;  $S$  – siljitivchi kuch;  $M_s, M_\theta$  – eguvchi momentlar;  $H$  – burovchi moment;  $Q_s, Q_\theta$  – ko‘ndalang kuchlar;  $u, v, w$  – ko‘chish vektori komponentalari;  $\varepsilon_{ss}, \varepsilon_{\theta\theta}, \varepsilon_{s\theta}, \chi_{ss}, \chi_{\theta\theta}, \chi_{s\theta}$  – deformatsiya tenzori komponentalari;  $P_s, P_\theta, P_\gamma$  – mexanik kuch tashkil etuvchilari;  $E$  – Yung moduli;  $\nu$  – Puasson koeffitsiyenti;  $\mu$  – magnit singdiruvchanlik.

Hosil qilingan (8)-(11) tenglamalar sistemasi, vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan mexanik va elektrodinamik kuchlar ta’sirida bo‘lgan qutblanmaydigan va magnitlanmaydigan tok eltuvchi paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli yupqa qobiqning magnitelastikligi noxiziqli differensial tenglamalari to‘liq yopiq bog‘liqli sistemasini tashkil etadi.

Keltirilgan tenglamalarga boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni qo‘shib, magnitelastik chegaraviy masalasi shakllantirilgan.

Dissertasiyaning «**Paraboloid shaklidagi aylanish sirtli yupqa qobiqning magnitelastikligi bog‘liqli masalalarini sonli yechish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobi vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan mexanik va elektrodinamik kuchlar ta’sirida bo‘lgan qutblanmaydigan va magnitlanmaydigan tok eltuvchi paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli yupqa qobiqning noxiziqli magnitelastikligi chegaraviy masalasini yechishda sonli usullarni ketma-ket qo‘llashga, yupqa qobiq magnitelastikligi bog‘liqli masalalarini sonli yechish uchun hisoblash algoritmlarini ishlab chiqishga, kuchlanganlik-deformatsiya holati va elektromagnit effektlarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Tok eltuvchi paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli yupqa qobiq noxiziqli magnitelastikligi chegaraviy masalasini sonli yechish chekli ayirmali Nyumark sxemasi, chiziqilashtirish va diskret ortogonallashtirish usullarini ketma-ket qo‘llashga asoslanadi va bu usullarni qo‘llash to‘rtta bosqichni tashkil etadi. Birinchi bosqichda tenglamalar to‘liq sistemasi (8)-(11) dan foydalanib, tok eltuvchi paraboloid shaklidagi izotrop aylanish sirtli yupqa qobiqning magnitelastiklik noxiziqli differensial tenglamalari yechiladigan bog‘liqli sistemasi keltirib chiqarigan. Bog‘liqli sistemani hosil qilishda elektromagnit maydoni va ko‘chishlar maydonining hamma komponentalari  $\theta$  koordinatadan bog‘liq emas deb olingan

$$\frac{\partial}{\partial \theta} = 0; v = 0; S = 0; H = 0; E_s = 0; B_\theta = 0; P_\theta = 0; \rho F_\theta^\wedge = 0.$$

Tok eltuvchi paraboloid shaklidagi aylanish sirtli qobiq ham ko‘ndalang kesimi ixtiyoriy bo‘lgan egiluvchan qobiqning sinfiga tegishli ekanligini ta’kidlab o‘tamiz va noma’lum funksiyalar sifatida, quyidagilarni olamiz:

$$u_x, u_z, \vartheta_s, N_x, N_z, M_s, E_\theta, B_z, \quad (12)$$

bu yerda  $u_x, u_z$  – radial va o‘q bo‘ylab ko‘chishlar,  $\vartheta_s$  – normalning buralish burchagi,  $N_x, N_z$  – radial va o‘q bo‘ylab zo‘riqish kuchlari,  $M_s$  – eguvchi moment,  $E_\theta$  – elektr maydon kuchlanganligi,  $B_z$  – magnit maydon induksiyasi. Bu kattaliklar  $u, w$  ko‘chishlar va  $N_s, Q_s$  kuchlar bilan quyidagicha bog‘langan:

$$\begin{aligned} N_x &= N_s \cos \varphi + Q_s \sin \varphi, & u_x &= u \cos \varphi + w \sin \varphi, \\ N_z &= N_s \sin \varphi - Q_s \cos \varphi, & u_z &= u \sin \varphi - w \cos \varphi. \end{aligned} \quad (13)$$

Bu funksiyalar ixtiyoriy kesimli aylanma qobiqlarning sodda qo‘shma sharti bajarilganda masala yechish algoritmini tuzishga imkon beradi. Bu holda elastiklik munosabatlari quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned} \varepsilon_{ss} &= \frac{1 - \nu^2}{Eh} (N_x \cos \varphi + N_z \sin \varphi) - \frac{\nu}{r} u_x, & \varepsilon_{\theta\theta} &= \frac{u_x}{r}, \\ \chi_{ss} &= \frac{12(1 - \nu^2)}{Eh^3} M_s - \frac{\nu \cos \varphi}{r} \vartheta_s, & \chi_{\theta\theta} &= \frac{\cos \varphi}{r} \vartheta_s, \\ N_\theta &= \nu(N_x \cos \varphi + N_z \sin \varphi) + \frac{Eh}{r} u_x, \\ M_\theta &= \nu M_s + \frac{Eh^3 \cos \varphi}{12 r} \vartheta_s. \end{aligned} \quad (14)$$

Bunda  $u_x, u_z$  – ko‘chish komponentalari,  $\vartheta_s$  – normal buralish burchagi,  $N_x, N_z$  – zo‘riqish komponentalari,  $M_s$  – eguvchi moment,  $E_\theta$  – elektr maydon kuchlanganligi,  $B_z$  – magnit maydon induksiyasi.

(13), (14) larni hisobga olib tok eltuvchi egiluvchan izotrop paraboloid shaklidagi aylanish sirtli ko‘ndalang kesimi ixtiyoriy bo‘lgan qobiq magnitoelastik differensial tenglamalari hal qiluvchi sistemasi hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial u_x}{\partial s} &= \frac{1 - \nu^2}{Eh} (\cos \varphi N_x + \sin \varphi N_z) \cos \varphi + \frac{\nu \cos \varphi}{r} u_x + \frac{1}{R_s} u_z - \\ &\quad - \sin \varphi \vartheta_s - \frac{\cos \varphi}{2} \vartheta_s^2 \\ \frac{\partial u_z}{\partial s} &= \frac{1 - \nu^2}{Eh} (\cos \varphi N_x + \sin \varphi N_z) \sin \varphi + \frac{\nu \sin \varphi}{r} u_x - \frac{1}{R_s} u_x + \\ &\quad + \cos \varphi \vartheta_s - \frac{\sin \varphi}{2} \vartheta_s^2 \\ \frac{\partial \vartheta_s}{\partial s} &= \frac{12(1 - \nu^2)}{Eh^3} M_s - \frac{\nu \cos \varphi}{r} \vartheta_s, \\ \frac{\partial N_x}{\partial s} &= \frac{\cos \varphi}{r} (\nu - 1) N_x + \left( \frac{1}{R_s} + \frac{\nu \sin \varphi}{r} \right) N_z + \frac{Eh}{r^2} u_x - (P_r + \rho F_r^\wedge) + \\ &\quad + \rho h \left( \frac{\partial^2 u_x}{\partial t^2} \cos \varphi + \frac{\partial^2 u_z}{\partial t^2} \sin \varphi \right), \\ \frac{\partial N_z}{\partial s} &= -\frac{\cos \varphi}{r} N_z - \frac{1}{R_s} N_x - (P_z + \rho F_z^\wedge) + \rho h \left( \frac{\partial^2 u_x}{\partial t^2} \sin \varphi - \frac{\partial^2 u_z}{\partial t^2} \cos \varphi \right), \\ \frac{\partial M_s}{\partial s} &= \frac{\cos \varphi}{r} (\nu - 1) M_s + \frac{Eh^3 \cos^2 \varphi}{12 r^2} \vartheta_s + \cos \varphi N_x - \sin \varphi N_z + \\ &\quad + (\cos \varphi N_x + \sin \varphi N_z) \vartheta_s - \frac{\nu \sin \varphi}{r} M_s \vartheta_s - \frac{Eh^3 \cos \varphi \sin \varphi}{12 r} \vartheta_s^2, \end{aligned} \quad (15)$$

$$\frac{\partial E_\theta}{\partial s} = -\frac{\partial B_z}{\partial t} - \frac{\cos \varphi}{r} E_\theta,$$

$$\frac{\partial B_\gamma}{\partial s} = -\sigma\mu \left[ E_\theta + 0,5 \left( \frac{\partial u_x}{\partial t} \sin \varphi - \frac{\partial u_z}{\partial t} \cos \varphi \right) (B_s^+ + B_s^-) - \mu J_{\theta ct} - \right. \\ \left. - \left( \frac{\partial u_x}{\partial t} \cos \varphi + \frac{\partial u_z}{\partial t} \sin \varphi \right) B_z \right] + \frac{B_s^+ - B_s^-}{h}$$

Lorens kuchi komponentalari:

$$\rho F_r^\wedge = h J_{\theta ct} B_\gamma + \sigma h \left[ E_\theta B_\gamma + 0,5 \left( \frac{\partial u_x}{\partial t} \sin \varphi - \frac{\partial u_z}{\partial t} \cos \varphi \right) (B_s^+ + B_s^-) B_\gamma - \right. \\ \left. - \left( \frac{\partial u_x}{\partial t} \cos \varphi + \frac{\partial u_z}{\partial t} \sin \varphi \right) B_z^2 \right]$$

$$\rho F_z^\wedge = -0,5 h J_{\theta ct} (B_s^+ + B_s^-) - \sigma h \{ 0,5 E_\theta (B_s^+ + B_s^-) + \\ + \left( \frac{\partial u_x}{\partial t} \sin \varphi - \frac{\partial u_z}{\partial t} \cos \varphi \right) \left[ 0,25 (B_s^+ + B_s^-)^2 + \frac{1}{12} (B_s^+ - B_s^-)^2 \right] - \\ - 0,5 \left( \frac{\partial u_x}{\partial t} \cos \varphi + \frac{\partial u_z}{\partial t} \sin \varphi \right) B_z (B_s^+ + B_s^-) \}. \quad (16)$$

Bunda

$$P_r = P_s \cos \varphi + P_\gamma \sin \varphi, \quad P_z = P_s \sin \varphi - P_\gamma \cos \varphi,$$

$$F_r^\wedge = F_s^\wedge \cos \varphi + F_\gamma^\wedge \sin \varphi, \quad F_z^\wedge = F_s^\wedge \sin \varphi - F_\gamma^\wedge \cos \varphi.$$

